

TO‘G‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANI TAHLILI

Ma‘murova Dilyora Olimbek qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada romanning g‘oyaviy-badiiy talqini, asosiy obrazlari, o‘sha davrdagi tuzim hamda To‘g‘ay Murodning mahorati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sho‘ro hukumati, paxtachilik, mafkura, bosmachilik, Turkiston, dala, dehqon, oqqoshsho, kommunizm

“Otamdan qolgan dalalar” romanining nomiyoq ajdod va avlod o‘rtasidagi vatan nomli umumiy, umrboqiy makonni yodga soladi. Asar nasrda bitilgan bo‘lib, o‘z yurtida ro‘shnolik ko‘rmagan, qalbi iztirobda, yelkasi oftobda kuygan dehqonqullar haqida lirik qo‘shiqdir. Tog‘ay Murod ta‘biri bilan aytganda, o‘zbek xalqiga qo‘yilgan haykal. Bir sulola timsolida ko‘rsatib berilgan xalq boshida necha zamonlar qora bulut bo‘lgan yog‘iyni millat boshiga solgan qora kunlari haqidagi marsiya. Yozuvchi bu asarda o‘zbek xalqining mustamlaka davrlarida chekkan jabr-u jafolarini bir oila misolida, uch avlod taqdirida, har bir o‘quvchiga tushunarli, sodda so‘zlar bilan tasvirlagan. Asarda tasvirlangan voqealar xuddi ko‘z o‘ngingda sodir bo‘lganday tuyuladi. Har bir qahramonning ayanhli taqdiriga achinmay ilojing yo‘q. Asarda Jamoliddindan boshlanib Dehqonqulgacha, hirmon boshidagi tarozibondan beshikdagi bolagacha – har bir personajning bir-birini takrorlamaydigan fojeasi bor. Asarda davr fojeasi, qullik iskanjasini ifodalash uchun uchlik ramzi doimiy ishlatilgan. Boshqaruv ranglarda akslanadi: oq (paxta, billur suv, oq tuproq yer), qizil (hukumat, bayroq, quyosh), qora (ter, yer, mehnat). Asarda bosh uchlik esa Jamoliddin, Aqrab va Dehqonqul.

Jamoliddin Ketmon - Oqqoshsho odamlari yerini, suvini “bulg‘agani” uchun bunday joyda ortiq yashashga jur‘ati yetmay ota yurtini tashlab ko‘ch ko‘tarishga majbur bo‘lgan, olomonga qo‘shilib zulmga qo‘lidan kelgancha qarshilik qilgan insonparvar shaxs.

Aqrab qo'rboshi butun umr bosqinchilarga qarshi kurashib, yurtini ulardan tozalash yo'lida umrini ham ayamagan vatanparvardir. Uning qanday inson bo'lganligini beixtiyor yozuvchining Aqrab qo'rboshi tilidan aytilgan so'zlari orqali bilib olishimiz mumkin: "Bosmachi demanglar, bosmachi bo'lib qaysi yurti bosib olibmiz, qaysi elni talon-taroj etibmiz. O'zlari yurtimizga bostirib keldi. Yana tag'in, bizni bosmachi deb atadi. O'zlarining yorliqlarini peshonamizga yopishtirdi". Shundayin mard, jasur Aqrab jigitning mardona so'zlari hech kimning oldida otdan tushmagan polkovnik Chanishevni otdan tushib hurmat ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

Shu oriyat, iymon-e'tiqod sohiblarining avlodi Dehqonqul ota-bobosi dushman sanagan, shu yo'lida jon tikkan sho'ro hukumatiga qul bo'ldi. Dehqonqul- hamiyati o'ldirilgan, o'zlik tuyg'usi begonalashgan, paxta ekish, chopish, terish, topshirishdan boshqa narsaga aqli yoki qurbi yetmaydigan sho'ro davri yaratgan sodda, mehnatkash odamlarning tipik personaji. Yozuvchi ushbu asarda Jamoliddin ketmondek haqiqiy musulmon, Aqrab yigitdek jasur o'zbeklar avlodi bosqinchilar tomonidan qanday qilib Dehqonqulga aylantirilganini mohirona ochib bergan. Paxtadan mo'l hosil olish Dehqonqulning o'z oilasi, farzandlarining taqdiridan-da muhim. Hatto o'z ayolining joniga qasd qilishi sababini anglab yetolmaydigan darajada" fidokor" u. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlari orasida juda katta tafovut mavjud. Bular yashagan davr va zamon ta'siridir. Uchala obraz timsolida o'zbek xalqining yaqin o'tmish tarixi yaratilgan. Dehqonqul dalam, deb yashaydi, kuyib-pishadi. Shuning uchun ter to'kadi, zahmat chekadi. Lekin yillar davomida dalasining quliga aylanganini sezmaydi. Negaki, mustamlakachilik siyosati yuqoridan va chetdan turib shu qadar ustamonlik bilan olib borilar edi. Yuksak va'dalar-u, unvonlarga uchgan xalq "buyuk g'oyalar" yo'lida tinmay mehnat qilardi.

Dehqonqul oilasining turmush tarzi misolida asosiy o'zbek oilalari bo'lmish qishloq atamasining juda past "o'lmasa o'tar" kun hayot tarzi namoyon bo'ladi. O'zi qancha og'ir mehnat ostida ezilmasin, kimyoviy dorilardan zaharlanmasin, bir umr kamchilik, yetishmovchilik ko'rmasin, jamiyatda huquqsizlik, tengsizlik sezmasin u o'z hayotidan nolimaydi, shu "it yotish mirza turish" turmushga ko'nib yashaydi. U qishloqdosh o'ziga o'xshagan odamlar orasida kam ham emas, ko'p ham emas. Aksariyat aholi ana shunday hayot kechiradi. Lekin hech kim

"tongdan shomgacha tinimsiz ishlab nega yomon yashaymiz" deb o'ylamaydi. Negaki, "mustamlakachilik faqat mamlakatni g'arib qilmaydi, undan ham yomonrog'i odamlarni, xalqni ruhan g'arib qiladi. Mustamlakachilar maqsadi iloji boricha xalqni ezish, uni muhtojlikda saqlash, "ozodlik", "tenglik" deb ataluvchi qullikda asrash uchun uni bir umr qora mehnatga mahkum etishdir. Shu maqsadda O'zbekistonni Sobiq Ittifoq paxta xomashyo bazasiga aylantirgan edi.

Ayol obrazlari haqida soʻzlasak, "Ketmon"ning ayoli umuman tilga olinmaydi, bu sharq tarixnavisligiga xos matn ostiga olingan, ammo toʻngʻichi Aqrab erkparvarligida onasining roli bordek. Aqrab ayolining goʻlligi bot-bot yodga keladi, erining bosmachiligini boshda hatto bilmaydi, farqiga ham bormaydi. Bularning ichida eng koʻp azob chekkani Dehqonqulning ayoli. Ayol avval oq va chekkabel kasalligiga duchor boʻlib, keyin ogʻir mehnatdan tovoni, yuzi, qoʻli yoriladi, nafislikdan asar ham qolmaydi. Paxta dalasi hosilga kirgan sari ayol va roʻzgʻorning rangi siniqib boraveradi, oxiri 752 ayoldek u ham oʻziga oʻt qoʻyadi. Yana bir misol, muxbirning ismingiz kim degan savoliga "paxtaoy", kasbingiz nima degan savoliga "paxtakor" deb hasrat va nafrat ohangida javob bergan Bolxin momoning 80 yil umri chanoqlarga ilinib tugayotgani zamon oʻziga moslab olgan Dehqonqulni – oʻgʻilni bezovta qilmaydi. Oʻziga oʻt qoʻyayotgan ayollarning ham uyida bittadan dehqonqullar bor. Chor Rossiyasi tomonidan gʻururi, ori, oʻzligi, vatan tuygʻusi-da falajlantirilgan dehqonqullar. Ular ota-bobolari oʻtmishda kim boʻlganini oʻylab koʻrmaganlaridek, nozik xilqatning yelkasiga tushayotgan yuklar haqida oʻylab koʻrmaganlar, shuning sababidan paxtaozga aylantirilgan vatanning har burchida har kuni ayollar oʻzlariga oʻt qoʻyadi. Va bu fojeani yopish maqsadida nechtasiga "aqliy noqisligi" uchun oʻzini kuydirgani haqida hujjat toʻldiriladi. Baʼzi dehqonqullar bunga qarshilik qiladi, baʼzilari qarshilik ham qilmagandir. Xalq boshidagi shoʻrolar hukumati ularni manqurt kimsaga aylantirgan.

Xulosa qilib aytganda, Togʻay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani sobiq tuzum tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining dahshatlari, milliy ozodlik, yoʻlidagi kurashlarning parokandalikka yuz tutishlari, paxta yakka hokimliklarining oqibatlari millatning qatagʻon qilinishi oʻzbek xalqining taqdiri misolida ochib berilgan.

Bularni ochib berishda yozuvchidan katta mahorat talab qilindi. O'sha davr qatag'on avj olgan paytda, hayda-haydalar, firqadan o'chirishlar, surgunlar, qamalishlarni muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan, voqealar jarayonida bevosita ishtirok etganlar suhbatidan bahramand bo'lib, keyin qog'ozga tushiradi. Va shu asari uchun Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar", "Fan". Toshkent. 2001 y.
2. Pardaeva Manzura, Til va adabiyot jurnali. 2004 yil, 1-son.
3. Pardaeva Zulfiya, Til va adabiyot Jurnali 2001 yil, 1-son.
4. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent, 2005 y.